

MUSTAQILLIK VA DIN

Raximboyeva Muazzamxon

Musurmonqulova Yaxshigul

DTPIning pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik va din o'rta sidagi o'zaro aloqadorlik, mustaqil davlatlardagi diniy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri hamda mustaqil davlatlarda fuqarolarning e'tiqod erkinligi, diniy marosimlar va qadriyatlarni hurmat qilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, din, jamiyat, diniy marosimlar, diniy erkinlik, diniy tashkilot, davlat ta'lim tizimi

Kirish

Mustaqillik – xalqning erki, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatidir. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilishi bilan mamlakatda katta o'zgarishlar davri boshlandi. Mustaqillik nafaqat siyosiy va iqtisodiy erkinlikni, balki xalqning ma'naviy qadriyatlarini, ayniqsa, diniy e'tiqodni qayta tiklash imkonini berdi.

Din insoniyatning asriy ma'naviy qadriyatlaridan biri bo'lib, inson hayotiga ma'naviyat va axloq mezonlarini olib kiradi. O'zbekiston xalqining ko'pchiligi musulmon diniga e'tiqod qiladi, shuningdek, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham bor. Mustaqillik yillarida diniy erkinlik ta'minlanib, har bir fuqaroning o'z e'tiqodiga muvofiq yashash huquqi kafolatlandi.

Mustaqillikdan avval, sobiq ittifoq davrida dinning rivojlanishi qattiq cheklolwarga duch kelgan edi. Masjidlar yopilgan, diniy ta'lim olish taqilangan,

diniy amallarni bajarish esa qiyinchiliklar tug‘dirgan. Mustaqillikdan keyin esa diniy erkinlik ta’minlanib, quyidagi o‘zgarishlar yuz berdi:

1. Diniy ta’limning tiklanishi: Mustaqillikdan so‘ng mamlakatda Islom dini va boshqa dinlar bo‘yicha ta’lim maskanlari ochildi. Hozirda Toshkent Islom instituti, Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Mir Arab madrasasi va boshqa ko‘plab ta’lim dargohlari faoliyat ko‘rsatmoqda.
2. Masjidlar va ibodatxonalar qurilishi: Mustaqillik yillarida yuzlab masjidlar qayta tiklandi yoki yangidan barpo etildi. Boshqa dinlarga oid ibodatxonalar ham yangilandi.
3. Diniy erkinlikni kafolatlash: Konstitutsiyaga muvofiq, har bir fuqaroning diniy e’tiqod va ibodat qilish erkinligi ta’minlanadi. Shu bilan birga, din davlatdan ajratilgan, bu esa barcha e’tiqodlarning teng huquqli ekanini anglatadi.
4. Islom merosini o‘rganish va dunyoga tanitish: Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy kabi buyuk allomalar merosi tiklanib, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etilmoqda. Bu meros nafaqat diniy, balki ma’naviy boylik sifatida qadrlanmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma’naviy omillar umumiyligiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to‘la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko‘rsatish imkoniyati yaratildi.

Mustaqillik davrida dinning jamiyatdagi o‘rni faqat ibodat bilan cheklanmay, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim omil sifatida qaraldi. Diniy marosimlar, xususan, ramazon va qurban hayatlari davlat miqyosida nishonlanishi xalq birligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Din va ma’naviyatning uyg‘unligi yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim rol o‘ynamoqda. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq yoshlarning diniy-ma’naviy tarbiyasiga katta e’tibor qaratilib, ular uchun mo‘ljallangan kitoblar, kurslar va tadbirlar yo‘lga qo‘yildi.

Bugun respublikamizda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2238 ta diniy tashkilot, 130 dan ortiq millat vakillarini o‘zida jamlagan 140 ga yaqin milliy-madaniy markaz, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, 9 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda. Ularda talabalar diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni olish imkoniyatiga ham ega.

Davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarda ta’lim bilan bog‘liq jihatlarga ham e’tibor qaratish lozim. O‘zbekiston davlat ta’lim tizimini har qanday diniy konfessiyalarning ta’siridan xoli bo‘lishini belgilagan. Unga ko‘ra, respublikada davlat ta’lim tizimi (maktab)ning har qanday konfessiya yoki diniy e’tiqod ta’siridan xoli, shu bilan birga, diniy e’tiqodga ham qarshi emas. Bu esa, davlat ta’lim tizimida diniy fanlarning ta’lim dasturlariga kiritilmasligini anglatadi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik va din bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Mustaqillik xalqning diniy erkinligini ta’minlasa, din jamiyatning ma’naviy va axloqiy poydevorini mustahkamlaydi. O‘zbekistonning bu yo‘nalishdagi siyosati xalqning milliy va diniy qadriyatlarini hurmat qilishga asoslangan bo‘lib, bu esa tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

2. <https://iauz.O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi>